



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E)

SJIF 2023: 6.907

S.Xalilova,  
D.Ibodullayeva

*SVPYMO'MM Aniq va Tabiiy fanlarni  
o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchilari  
E-mail:sevaraabdumannabovna@gmail.com Tel: (97) 9070603*

**DORIVOR O'SIMLIKALAR VA ULARDAN OQILONA  
FOYDALANISHNING O'RNI VA AHMIYATI**

## Annotation

Ushbu maqolada dorivor o'simliklar va ulardan oqilona foydalanish, dorivor o'simlikni asrab avaylash yo'llari haqida misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** dorivor o'simliklar, madaniy o'simliklar, kasalliklar, dori-darmon  
Abstract

In this article, provides examples of medicinal plants and their wise use, to preserve them

Key words: medicinal plants, cultivated plants, diseases, medicine

## Аннотация

В данной статье представлены примеры лекарственных растений и их рациональное использование, способы сохранения лекарственных растений.

Ключевые слова: лекарственные растения, культурные растения, болезни, медицина

## Kirish



Makrofag hujayralari o'tkir yallig'lanish reaksiyasining tez faollashishi tug'ma immunitet va organizm tabiiy himoyasining asosiy qismi hisoblanadi. Biroq, yallig'lanish jarayonlari autoimmun reaksiyalarining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, ya'ni immun tizimning haddan tashqari faollashuvi, masalan, koronovirus infeksiyasida sitokin shtormi yoki surunkali yallig'lanish jarayonlari (astma, revmatoid artrit, diabet, yarali kolit) yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayonlar organizmgaga bevosita zarar yetkazadi. Steroid bo'limgan yallig'lanishga qarshi dorilar va glyukokortikoidlar bilan yallig'lanishga qarshi terapiya ko'pincha kerakli ta'sirga ega emas. Shu munosabat bilan, makrofaglarning faollashuvini va yallig'lanishga qarshi sitokinlarning faolligini bostiradigan birikmalar yordamida immunokorrekteysi qilish imkoniyatini o'rganish masalasi dolzarbdir [2,3].

Ushbu birikmalar o'simliklardan ajratilgan sintetik yoki tabiiy bo'lishi mumkin. Dorivor o'simliklar inson kasalliklarini davolash uchun yangi dori-darmonlarni ishlab chiqish uchun mobil resurslarni taqdim etadi. So'nggi yillarda ularning keng manbalari va qazib olish qulayligi tufayli o'simlik ekstraktlari asta-sekin tadqiqotning qaynoq nuqtasiga aylandi. Hozirgacha 35 000-70 000 ga yaqin o'simlik turlari terapevtik ta'siri uchun o'rganilgan [5].

Mamlakatimizda aholining tibbiy madaniyatini oshirish, dorivor o'simliklar afzalliklarini aholi va shifokorlar orasida keng targ'ib etish, dorivor o'simliklarni yetishtirish va chuqur qayta ishlashda ilm-fan va ishlab chiqarish korxonalarining kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish va mustahkamlashga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida dorivor o'simliklardan yangi biologik faol moddalarni ajratib olish, ularni chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish, dorivor o'simliklarning sertifikatlangan urug'chiligini tashkil etish, dorivor o'simliklar ko'chatlarini "in-vitro" usulida ko'paytirish, ularni yetishtirish agrotexnologiyasini yaratish kabi keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 20.05.2022 yildagi PQ-251-son qarori ham yuqorida fikrimizning yaqqol dalilidir [1].



Ushbu qarorga muvofiq ma'lum hududlarda o'sadigan o'simlik va yashaydigan hayvonlarni tabiiy sharoitda saqlab qolish uchun maktab darsliklariga kiritish, o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish ahamiyati kattadir. Dorivor o'simliklarni tabiatdagi zaxirasini saqlab qolish va har yili ulardan ma'lum miqdorda mahsulot tayyorlab turish maqsadida, yuqorida aytib o'tilgan tadbirlardan tashqari yana quyidagi qoidalarga rioya qilish maqsadga muvofiqli:

1. O'quvchilar dorivor o'simlik mahsulotlarini o'z vaqtida to'g'ri va kerakli miqdorda tayyorlash, to'g'ri quritish va saqlash ko'nikmalarini shakllantirish. Bu esa yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarni ortiqcha yig'ib, isrofgarchiligidan saqlaydi.

2. Dorivor o'simlik mahsulotlarini ilmiy asoslangan reja bo'yicha, ko'p o'sadigan joylarni va zaxirasini to'g'ri aniqlab bilgan hamda tayyorlanadigan joylarini vaqt-vaqtida almashtirib turgan holda yig'ish lozim. Agarda shu keltirilgan qoidalarga amal qilinsa, bu dorivor o'simliklarni tabiatda o'sish joyini saqlab qolish mumkin.

3. Ko'p yillik o'simliklarning yer ustki qismi (bargi, guli, mevasi) dan dori tayyorlanadigan bo'lsa, ularning ildizi bilan sug'urib olmaslik lozim. Bordi-yu, yerostki organlari (ildizpoya, ildiz, tuganak) kavlanadigan bo'lsa. mevasi pishib to'kilgandan so'ng yig'ish kerak. Aks holda shu dorivor o'simliklar keyinchalik o'sha joyida o'simlik o'sib chiqmasligi mumkin.

4. Yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardi tayyorlash uchun yig'ib olingandan so'ng (ayniqsa, yer osti organlari kavlab olingandan so'ng) ularning keyinchalik yana o'sib chiqishiga katta ahamiyat berish lozim. Buning uchun bir yerdan necha yilgacha o'simlik mahsulotini yig'ish mumkin va necha yil dam berish kerakligi haqidagi qoidalarga qat'iy rioya qilish kerak.

5. Dorivor o'simliklardan kompleks va hamma qismlaridan to'liq foydalanish zarur bo'lganda ularning xom ashyosini kamroq tayyorlash kerak. Natijada tabiiy o'sish joyida ularning zaxiralarini saqlab qolish mumkin bo'ladi.

Agarda dorivor o'simliklar ildizpoyasi, ildizi, tuganak yoki piyozi dorivor mahsulot bo'lsa, shu o'simliklarning yer ustki qismini kimyoviy va farmakologik jihatdan o'rjanib, yer ostki organlari o'mida ishlatishga tavsiya etish, shu o'simlikning



tabiiy o'sish joyidagi zaxirasini saqlab qolishda ahamiyati juda katta. Bu ham dorivor o'simliklarni muhofaza qilishning asosiy tadbirlaridan biridir.

6. Dorivor o'simliklarni sug'oriladigan yerlarga ko'proq ekib o'stirish va ularni agrotexnikasi yaratilsa, respublikamizda tabiiy sharoitda o'sayotgan dorivor o'simliklar zaxirasini saqlab qolish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki yuqorida keltirilgan dorivor o'simliklar zaxirasini tabiatda saqlab qolish tadbirlariga birinchi galda mактабдан o'quvchilarga mahalliy ya'ni o'zлari yashab turgan xududlar dorivor o'simliklari, dorivor o'simliklarning dorivorlik xususiyatlari bilan tanishtishish ulardan oqilona foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish lozim. Shu kabi ishlarning amalga oshirilishi, tabiat boyliklaridan biri bo'lgan dorivor o'simliklar tabiiy o'sish joylarida uzoq vaqtlar saqlanib qoladi va insonga ko'p xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev SH.M. "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishslash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 20.05.2022 yildagi PQ-251-son qarori
2. Мурдахаев Ю. М. Лекарственные культуры в Узбекистане, Ташкент, 2001.
3. Ataboyeva H. N. va boshqalar. O'simlikshunoslik. Toshkent, 1995.
4. Murdaxayev Yu.M. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. Toshkent, 1990.
- 5 World Health Organization (WHO). Regulatory Situation of Herbal Medicines: A Worldwide Review; World Health Organization (WHO): Geneva, Switzerland, 2013.